

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY OMILLARI VA TAMOYILLARI.

**O'Imasov Umidjon Ergashali o'g'li
Farg'ona Davlat Universiteti Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi talabasi**

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqlol mafkurasining asosiy vazifalaridan biridir. U xalqimizning bo'lган olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi. Dirlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas. Aslida diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonma-yon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islam, ham nasroniylik iduizim kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etilgan. O'sha davrlarda ham ziylilar, olimlar hayot saboqlarini bir-biridan o'rganganlar, ustoz-shogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

"Biz Yangi O'zbekistonni mard va olivjanob xalqimiz bilan barpo etamiz, degan ulug'vor niyatni o'z oldimizga qo'yganmiz. Bu borada "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan yondashuv kundalik faoliyatimizning tobora chuqur kirib bormoqda"[1.19.]. Inson har tomonlama erkin va farovon yashaydigan yangi davlatni barpo etishdek buyuk xalq harakati tobora kengaymoqda. Bunday qudratli safda bo'lish ning o'zi baxt, katta sharafdir.

Bugun yaxshi niyatlar bilan juda marralarni o'zimizga belgilab olar ekanmiz, hayotimizning turli sohalarida muammo va kamchilikar yetarli ekanini ham yaxshi tasavvur etamiz. Yo'limizda katta g'ov bo'lib turgan to'siqlarni yengib o'tish uchun boshlagan islohotlarimizni og'ishmasdan davom ettiramiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangi davrda yanada katta safarbarlik bilan ishlashimizga to'g'ri keladi. Barqarorlik ijtimoiy, ma'naviy – jamiyatdagi tinch-totuvlik, birdamlik va ularni mustahkamlash uchun shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiylar o'rtasidagi hamjihatlik vaziyati; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishidir. T.Parsons "ijtimoiy tizimning barqarorlik qoidalari"ni ishlab chiqishga harakat qilgan. Uning fikricha, har qanday barqaror jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tashkil etadigan elementlar faoliyati o'zaro uyg'un bo'lishi shart. Ana shu uyg'unlik doimiy barqarorlik omilidir. Bunda davlatning vazifasi jamiyatning eng kichik bo'g'inlari, jamoalar, tashkilotlar, idoralar orasidagi mutanosiblikni saqlash va mustahkamlashdan iborat. Agar davlat buning uddasidan chiqa olsa, u jamiyatni barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan boshqaruvchi (regulyator) vazifasini ado etadi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning muayyan islohotlarni

amalga oshirishi uchun imkon yaratadi. Bu qarashlar ko‘pgina mutaxassislar tomonidan e’tirof qilingan. Barqaqorlik jamiyat taraqqiyotining, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishning asosiy sharti, ma’naviy tamoyillar amaliyotini ta’minlashdir.

Bu orzu ma’naviyat va marifatni odamni nafaqat komillikka, erkin va farovon turmushga yetaklovchi, balki xalqni milliy mustaqillikka intiluvchi beqiyos kuch sifatida anglab yetish imkonini beradi. Yangi O’zbekiston orzusi va uning asosida ishlab chiqilgan strategiya avvalo, ochiqlik va hamkorlik tamoyillariga tayanadi. Unda Markaziy Osiyodagi qo’shnilarimiz uzoq yaqindagi davlatlar butun jahon hamjamiyati bilan o’zaro manfaatli hamkorlik tobora globallahib borayotgan bugungi kundagi muammolarni birgalikda hal etish rivojlangan mamlakatlar safiga kirishdek amaliy sa’y-harakatlar mujassam.

Imom Buxoriy bobomiz rivoyat qilgan muborak hadisda aytilganidek, “Barcha amallar niyatga qarab bo’lg’usidir”. Bu yo’lda ulug’ bobomiz Naqshbandiya tariqatining buyuk namoyondasi Xo’ja Axrор Valiyning: “Shunchaki orzu bilan ish bitmaydi, maqsadga yetishish uchun g’ayrat va himmat kerak”, degan so’zлari biz uchun dasturilamal bo’lib xizmat qiladi.

“Hozirgi vaqtga kelib tobora globalashib borayotgan dunyoda bag’rikenglik tamoyili ijtimoiy-ma’naviy hayot turli sohalarida katta qiziqish uyg’otmoqda. Inson, jamiyatning mohiyati, ularning kejalakdagi taqdiri muammolari nuqtai nazaridan qaraganda, bag’rikenglik masaiasining har tomonlama turli darajadagi yondashuvlar ro’y bermoqda”[2.4.].

XXI asr boshlariga kelib “bag’rikenglik” tushunchasi jamiyat hayotida noyob madaniy hodisa darajasiga ko’tarildi. Dastlabki vaqtarda u murosai-madora ma’nosida e’tirof etilgan bo lsa, bora-bora uning ma’no-mohiyati kengaya bordi. Hozirgi vaqtga kelib, ijtimoiy fanlarning sohalari - etika, tarix, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, falsafa va boshqalarda bag’rikenglik tushunchasi bevosita foydalanimoqda. Qadimdan jahon sivilizatsiyasi va madaniyati chorrahasida joylashgan diyorimizda xalqimiz bilan birga turli millat vakillari ahil va hamjihat bo’lib tinch va osoyishta yashab keladi. O’zbekistondagi bag’rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo’lib yashayotgan millat va elat vakillariga o’z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Barchamiz bir tan-u bir jon bo’lib, yakdil va ahil bo’lib harakat qilsak, halol-pok bo’lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, yangi tariximizning yorqin sahifalarini yaratishga qodirmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. “O’zbekiston”. 2022.
2. Murtazayeva R.O’zbekiston millatlaro munosabatlar va tolerantlik. Toshkent: “Go To Print” 2020.